



YOUTH POLICY FROM THE WORLD AND UZBEKISTAN'S PERSPECTIVE (COMPARATIVE ANALYSIS USING THE EXAMPLE OF ZARAFSHAN OASIS)

Shukhrat Norov

Head of Department, Doctor of Philosophy (PhD) in History, Associate Professor
Navoi State University of Mining and Technology
Navoi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Zarafshan Oasis, youth policy, Youth Day, European Union, interethnic cooperation, Erasmus Mundus, environmental cooperation, staff turnover.

Received: 08.08.25

Accepted: 09.08.25

Published: 10.08.25

Abstract: This article highlights youth policy and their role in the social, economic, political, and cultural life of the world and Uzbekistan using the example of the Zarafshan oasis regions, as well as current problems in youth life and alternative solutions offered by youth organizations in solving these problems. The Samarkand, Bukhara and Navoi regions are compared in the implementation of complex tasks related to the implementation of youth policy.

DUNYO VA O'ZBEKISTON NIGOHIDA YOSHLAR SIYOSATI (ZARAFSHON VOHASI MISOLIDA QIYOSIY TAHLIL)

Shuhrat Norov

kafedra mudiri, Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
Navoiy, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Zarafshon vohasi, yoshlar siyosati, Yoshlar kuni, Yevropa Ittifoqi, millatlararo hamkorlik, Erasmus Mundus, ekologik hamkorlik, kadrlar almashinuvi.

Annotatsiya: ushbu maqolada Zarafshon vohasi viloyatlari misolida yoshlar siyosati va ularning dunyo va O'zbekistonning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotidagi o'рни, shuningdek, yoshlar hayotidagi dolzarb muammolar va yoshlar tashkilotlariga ushbu muammolarni hal qilishda taklif etilayotgan muqobil echimlar yoritilgan. Yoshlar siyosatini amalga oshirish bo'yicha kompleks vazifalarni amalga oshirishda Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlari taqqoslandi.

МОЛОДЕЖНАЯ ПОЛИТИКА ИЗ МИРОВОЙ И УЗБЕКИСТАНСКОЙ ПЕРСПЕКТИВЫ (СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ НА ПРИМЕРЕ ЗАРАФШАНСКОГО ОАЗИСА)

Шухрат Норов

*Заведующий кафедрой, доктор философии (PhD) по истории, доцент
Навоийский государственный горно-технический университет
Навои, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Зарафшанский Оазис, молодежная политика, День молодежи, Европейский Союз, межнациональное сотрудничество, tasmas Mundus, экологическое сотрудничество, текучесть кадров.	Аннотация: В данной статье освещается молодежная политика и их роль в социальной, экономической, политической, культурной жизни мира и Узбекистана на примере областей Зарафшанского оазиса, а также актуальные проблемы в жизни молодежи и альтернативные решения, предлагаемые молодежными организациями в решении этих проблем. Сопоставлены Самаркандская, Бухарская и Навоийская область в реализации комплексных задач относительно реализации молодежной политики.
--	---

Kirish

O'zbekiston Respublikasi yoshlarining jamiyatdagi o'rnini va roli yildan-yilga ortib bormoqda. Bugungi kunda yurtimizda yoshlar aholining eng katta qatlamini tashkil etadi — ularning salohiyati, bilimiga ega bo'lishi, zamonaviy fikrlashi va tashabbuskorligi mamlakat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sanaladi. Shu boisdan ham davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida yoshlar bilan ishlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalasi doimiy e'tibor markazida turadi.

O'zbekiston hukumati yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va tizimli tarzda olib bormoqda. Ushbu siyosatning asosiy yo'nalishlari qatoriga yoshlarga zamonaviy va sifatli ta'lim berish, ularning bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka jalb etish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, shuningdek, ijtimoiy himoya va huquqlarini kafolatlash kiradi. Mustaqillik yillaridan boshlab, to hozirgi kunga qadar mamlakatimiz yoshlarini dunyoning ilg'or va etakchi yoshlari qatoriga qo'shilishi uchun har tomonlama zarur shart va sharoitlar yaratilib kelinmoqda va o'z navbatida ushbu islohatlarning asosiy ildiz sifatida esa prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan amalga joriy etilayotgan qaror, farmonlar, buyruq va qonunlar hisoblanadi [1]. Yoshlarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash maqsadida bir qator huquqiy va institutsional mexanizmlar joriy qilingan. Jumladan, 2016-yil 14-sentabrda qabul qilingan «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonun bu sohada asosiy yo'nalishlarni belgilab

berdi. Qonunga muvofiq, davlat yoshlarni har jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini oshirish, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratishni o'z zimmasiga oladi.

Bugungi kunda dunyoda 15 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan 1,2 milliard yoshlar yashamoqda, bu global aholi sonining taxminan 16 foizini tashkil etadi. 2030- yilga kelib, bu ko'rsatkich 1,3 milliardga etishi kutilmoqda. Yoshlar – har bir davlatning kelajagi. Ammo bu kelajakni qanday shakllantirish masalasi har bir jamiyatda turlicha hal etiladi. So'nggi o'n yilliklarda yoshlar siyosati global miqyosda muhim siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy yo'nalish sifatida shakllanib bormoqda. Davlatlar bu borada turli yondashuvlarni qo'llashmoqda: ba'zilar yoshlarning fuqarolik faolligini oshirishga e'tibor bersa, boshqalari iqtisodiy integratsiya yoki texnologik rivojlanishga urg'u beradi. Umumiy maqsad esa yosh avlodni jamiyatga samarali integratsiya qilish, ularning salohiyatini ro'yobga chiqarish va ularni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy hayotda faol ishtirok etishga undashdir [2].

Natijalar

O'zbekiston Respublikasi prezident Sh. Mirziyoyev ham bu borada salmoqli islohotlarni olib bormoqda. Yoshlar siyosati – davlat siyosati darajasiga olib chiqilgan bo'lib, ular prezidentimiz tomonidan ta'kidlanganidek, mamlakatimizning oltin fondi deb qaraladi [2]. Yoshlarga bo'lgan e'tiborning namunasi sifatida O'zbekiston terma jamoasining Jahon chempionatidagi ishtirokini misol qilib olishimiz mumkin. Tarixiy g'alabani qo'lga kiritgan har bir terma jamoa vakillari prezidentimiz tomonidan e'tibor bilan, munosib ravishda taqdirlandilar [3].

Jumladan, 1957-yilda siyosiy va iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish, erkin savdo va tovarlar, xizmatlar, kapital va odamlarning erkin harakati, birgalikda tashqi siyosat yuritish, demokratiya, inson huquqlari va qonun ustuvorligini targ'ib qilish, a'zo mamlakatlar o'rtasida tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash kabi maqsadlarni o'ziga shior qilib olgan Yevropa Ittifoqi tashkiloti ham yoshlarni qo'llab quvvatlash bo'yicha faol harakatlar olib bormoqda. Yevropa Ittifoqining bu borada EU Yoshlar strategiyasi (EU Youth Strategy) nomli dasturi mavjud bo'lib, 2019-2027-yillarga mo'ljallangan. Ushbu dasturning umumiy maqsadi butun dunyo bo'ylab yoshlarni faollikka undash, ijtimoiy sog'lom hayotga jalb qilish, yoshlarda o'zaro rivojlanish ko'nikmalarini yaratish kabi maqsadlardan iborat. Ushbu dastur 3 tamoyilga asoslangan bo'lib «Angla, Ishtirok et, Imkoniyat yarat» deb nomlanadi [4]. Birinchi tamoyil asosida yoshlarni siyosiy, ijtimoiy va fuqarolik hayotiga faol ishtirok etishga undaydi, yoshlar tashkilotlarini qo'llab-quvvatlaydi, fuqarolik ongini va demokratik ishtirokni oshirishga qaratilgan. Ishtirok et- Connect hamda Empower tamoyillarida ham turli millat, madaniyat va kelib chiqishga ega yoshlar o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash, Erasmus+, European Solidarity Corps kabi dasturlar orqali yoshlarni

bog'laydi, Yevropa ichida va tashqarisida madaniy va ijtimoiy aloqalarni kuchaytiradi, ta'lim, bandlik, sog'liq, ruhiy salomatlik va innovatsiyalar sohalarida yoshlar imkoniyatlarini kengaytiradi [5].

Xususan Zarafshon vohasi bo'ylab ham Yevropa Ittifoqi (YI) tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan dasturlar asosida amalga oshirilayotgan faoliyatlar mavjud. Bu tashabbuslar asosan yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ekologik barqarorlikni ta'minlash va hududiy rivojlanishni rag'batlantirishga qaratilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Aynan shu kabi keng imkoniyatlarning yoshlarimizga berilishi ularning keng fikrlash, salohiyat hamda raqobatbardoshlik kabi fazilatlarini amalda ko'rsatish imkoniyatini yaratadi. Bugungi kunda har bir davlatning asosiy e'tibor markazida va muqobil echimlari topilishi zarur bo'lgan muammolardan biri – ekologik muammolar bo'lib, Zarafshon vohasida shu kabi muammolar mavjud [6].

Zarafshon daryosining yuqori qismidan quyi qismiga borib, ifloslanishning oshib borishi ekologik muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holatni bartaraf etish maqsadida ilmiy tahlillar olib borilib, geoekologik xavf darajasi hududlar bo'yicha ajratilgan va bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan. Bu ishlar YI tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan ekologik dasturlar doirasida amalga oshirilmoqda. Asosiy e'tiborni qaratish zarur bo'lgan nuqta shundaki, voha yoshlarining o'zi ham kelajakka, tabiat, fauna va floraga befarq emas. Bugungi kun yoshlarining tasavvurida ona zamin va atrof muhitning sofliги va musaffoligisiz hech qanday kamolot bo'lmasligini tushunib yetganlar [7].

Yuqorida keltirib o'tilgan islohatlarning amaliy namunasi sifatida Zarafshon vohasida joylashgan qadimiy va tarixiy 3 ta viloyat Navoiy, Buxoro, Samarqand misol qilib olishimiz mumkin. Zarafshon shahri (Navoiy viloyati) doirasida yoshlar siyosati – O'zbekistonning umumiy yoshlar siyosati doirasida amalga oshirilayotgan mahalliy tashabbus va dasturlarni o'z ichiga oladi. Yoshlar siyosati davlat tomonidan yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlanishini ta'minlashga qaratilgan chora tadbirlardir.

Aynan Navoiy viloyati misolida ancha sa'i- harakatlar amlaga oshirilmoqda. Viloyatda yoshlarni bandligini ta'minlash va tadbirkorlikka jalb etish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. Masalan, Navbahor tumanidagi «Sarbozor» mahallasida probatsiya hisobida turgan yoshlar bilan uchrashuvlar tashkil etilib, ularga tadbirkorlikka oid maslahatlar berilmoqda. Shuningdek, «Loyihalar yarmarkasi» tadbirlari orqali yoshlarni biznesga jalb qilishga qaratilgan chora-tadbirlar ham amalga oshirilmoqda.

Navoiyning iqtisodiy rivojlanishi yoshlarni ish bilan ta'minlashga ham katta e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda 3,6 milliard dollarlik 15 ta yangi loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo'lib, bu 7 mingdan ortiq yangi ish o'rinlarini yaratishga imkon beradi. Bundan

tashqari, 600 ta yangi korxona ishga tushirilishi va 15-20 mingta yuqori daromadli ish o'rinlari yaratilishi kutilmoqda.

Navoiyning barcha tumanlarida yoshlar bilan ishlash bo'limlari faoliyat yuritmoqda. Masalan, Navoiyning Navbahor tumanida yoshlar bilan ishlash bo'limi tashkil etilgan va mahallalarda yoshlar etakchilari lavozimlari mavjud. Bu tizim yoshlarning ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ularning muammolarini hal etishda muhim rol o'ynaydi [8].

Navoiyning shahar va tumanlarida yoshlar uchun zamonaviy infratuzilma yaratish ishlari davom etmoqda. Masalan, «Yoshlar markazlari» qurilishi, sport inshootlari va kutubxonalar tashkil etilishi yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishiga xizmat qiladi. Shuningdek, «Yoshlar daftari» va «Yoshlar balansi» tizimlari orqali yoshlarning ehtiyojlari va muammolari muntazam ravishda monitoring qilinadi. 2023-yilda 29 926 nafar xotin-qizlarning bandligi ta'minlandi, shundan 1 610 nafari tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ygan. 2024-yilda bu ko'rsatkichlar yanada oshirish rejalashtirilgan.

Buxoro viloyatida yoshlar siyosati sohasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Viloyat hokimi Botir Zaripovning ma'lum qilishicha, 2023–2025-yillarda Buxoro viloyatini to'liq ish bilan ta'minlangan hududga aylantirish rejalashtirilgan. Bu maqsadga erishish uchun 250 mingta ish o'rni yaratish ko'zda tutilgan. Shuningdek, Hindiston bilan hamkorlikda Qorako'l tumanida IT-klaster tashkil etish loyihasi ham rejalashtirilgan [9].

Qolaversa Yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish maqsadida, Buxoro viloyati Ichki ishlar boshqarmasi tomonidan «Rahbar va yoshlar» uchrashuvlari o'tkazilmoqda. Bu uchrashuvlarda yoshlarning muammolari tinglanib, ularni hal etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab olinadi. Masalan, G'ijduvon tumanida yashovchi «ahvoli og'ir» toifasiga kiritilgan yoshlar bilan muloqot o'tkazilib, bank imtiyozli kredit mablag'lari ajratilishi, tadbirkorlik uchun er maydoni ajratishda amaliy yordam berish, ish bilan ta'minlash kabi masalalar muhokama qilingan.[10]

Shuningdek Buxoro viloyatida sport sohasida yoshlarning faolligini oshirish uchun amaliy harakatlar ham olib borilayotgan bo'lib viloyta bo'ylab turli xil sport musobaqlari ham o'tkazilib kelinmoqda.

Samarqand viloyatida yoshlar siyosati sohasida 2025-yilda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar va tashabbuslar yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga qaratilgan bo'lib ularning kelajakda jamiyatning har sohada ilg'or qatlami bo'lishi uchun e'tibor qaratilib kelinmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha rejalar bilan tanishgan holatda, viloyatning kelgusidagi rejalarini bilan tanishib chiqdi. Unga ko'ra viloyatga 2025-yilda 1,8 mlrd dollar investitsiya jalb qilish orqali 20

ming ish o'rni yaratish, zaxiradagi erlarda sanoat zonalarini tashkil etish, yaylovlarni turistik zonalariga aylantirish kabilar shular jumlasidandir [11].

Asosiy yo'nalishlardan biri – ishsiz yoshlar va maktab bitiruvchilarining bandligiga ko'maklashish maqsadida, jumladan «Yoshlar bandligi dastur»larini mahalla-sektor-tuman-viloyat darajasida ishlab chiqildi. Ushbu dasturlar doirasida mehnat bozoriga kirib kelgan 23 ming 242 nafar yoshlarning bandligi ta'minlandi, 776 nafariga subsidiya ajratildi, 881 nafariga er maydoni berilgan bo'lsa, 900 nafar yoshlarga kreditlar ajratildi. Ishsiz yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha 31 ming nafar yoshlar doimiy va jamoat ishlariga joylashtirilib, ularning bandligi ta'minlandi.

«Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlarning muammolarini hal etishda yangi tizim imkoniyatidan keng foydalanilmoqda. Xususan, ijtimoiy xodim bilan birgalikda yoshlarga ko'rsatiladigan yordam turlaridan yanada samarali tashkil etilmoqda. Mazkur yo'nalishda yil davomida qariyb 34 ming nafar yoshlarga amaliy yordam ko'rsatildi.

Ta'lim sohasida ham qator islohatlar amalga oshirilayotgan bo'lib, yoshlarning ta'lim-tarbiya olishlariga e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim to'lov-kontrakti, bir martalik moddiy yordam, yoshlarning safarbarlik chaqiruvi rezervi xarajatlari, asbob-uskuna va mehnat qurollari ajratish, zamonaviy kasb, AKT va xorijiy til o'quv kurslari kompensatsiyasi uchun 51 mlrd so'mlik mablag'lar ajratilgan [12]. 11 ming 187 nafar yoshlar doimiy ish o'rniga joylashtirildi, qariyb 2 ming nafar yoshlar uchun 39 mlrd. so'mlik kreditlar ajratildi hamda 2,5 ming nafardan ko'prog'iga 770 ga er maydoni taqsimlab berilib, «Yoshlar daftari» orqali amaliy yordam berildi. Ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning bo'sh vaqtini samarali o'tkazishlari uchun esa Yosh kitobxon ko'rik tanlovlar va shuningdek, sport musobalari tashkillashtirilib ham kelinmoqda ularda faol ishtirok etayotgan yoshlarga munosib sovg'alar berib kelinmoqda.

So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida bir nechta muhim dasturlar hayotga tadbqiq etildi. Jumladan, «Yoshlar daftari» tizimi orqali yordamga muhtoj yoshlarni aniqlash va ularga individual yondashuv asosida yordam ko'rsatish mexanizmi joriy qilindi. «Har bir yoshga — kasb-hunar» tashabbusi orqali esa ishsiz yoki ta'limdan chetda qolgan yoshlarga kasb o'rganish va ish bilan ta'minlash imkoniyatlari yaratilmoqda.

Shuningdek, respublika miqyosida tashkil etilayotgan «Yoshlar festivali», «Tafakkur sinovlari», «Yoshlar parlamenti», «Lider yoshlar» kabi loyihalar va forumlar orqali ularning ijtimoiy faolligi, rahbarlik qobiliyatlari va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, yoshlar o'rtasida jinoyatchilik, giyohvandlik va turli salbiy illatlarga qarshi kurashish ham yoshlar siyosatining muhim tarkibiy qismi sanaladi. Bu yo'nalishda mahalliy

hokimliklar, Ichki ishlar organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda profilaktik ishlar olib borilmoqda.

Muhokama

«Hududiy rivojlanish va barqaror iqtisodiy o'sish» shiori ostida Zarafshon vohasida qishloq xo'jaligi va agro sanoat sohaslarida barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida YI tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan «O'zbekiston – 2030» strategiyasi doirasida qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu loyihalar orqali hududda iqtisodiy o'sish, ish o'rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, «Mening uyim» Billing tizimi ishlab chiqildi. Ushbu tizimda ko'p qavatli turar joy xonadonlarining boshqaruv servis kompaniyalari, tabiiy gaz, elektr energiyasi, issiqlik ta'minoti, ichimlik va oqova suv hamda chiqindilarni olib chiqish xizmatlari kabi kommunal to'lovlar haqidagi ma'lumotlar bir tizimga jamlandi. Bu esa aholiga kommunal to'lovlarni onlayn to'lash, to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlarni monitoring qilish kabi qulayliklarni yaratadi. Eng asosiy islohotlardan yana biri bu, aholiga yaratilishi lozim bo'lgan sharoitlar sirasiga jamoat transportini yaxshilash masalasi ham kiritilgan bo'lib, bu borada avvalo «Jamoat transportini boshqarishning yagona intellektual tizimi» ishlab chiqildi. Butun dunyoda yo'l- transport sohasi, tirbandlik kabi muammolarni hal etishda ushbu yechimdan keng va samarali foydalanilmoqda. Xususan, O'zbekistonning eng yosh va sanoati rivojlangan Navoiy viloyatiga ham Xitoyning «YUTONG» kompaniyasida 60 ta avtobuslar keltirildi. Yangi avtobuslarning 42 tasi esa Navoiy shahar va Karmana tumani bo'ylab harakati yo'lga qo'yildi. Hozirda keng jamoatchilikning foydalanishiga topshirilgan bo'lib, barcha qulayliklar mavjud [13].

Yevropa Ittifoqining ta'lim sohasida ham alohida o'rni mavjud bo'lib, Erasmus+ dasturi doirasida O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari 2014–2020-yillarda 649 ta xalqaro kredit mobillik (ICM) hamkorligini tashkil etdi. Bu orqali 3000 dan ortiq professor-o'qituvchi va talabalar xalqaro tajriba almashish imkoniyatiga ega bo'ldi. Zarafshon vohasi, Samarqand hamda Navoiy viloyatlarida ushbu dastur bo'yicha xalqaro hamkorliklar yo'lga qo'yilgan bo'lib, Jan Monet va Erasmus + Mundus bo'yicha 312 ta loyihalar tayyorlangan bo'lib va 124 loyihalar ijobiy baholanib qabul qilingan.

Yoshlar siyosati insoniyat tamaddunining markazlaridan bo'lmish Sharqda ham alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, Singapur, Malayziya, Indoneziya, Xitoy, Yaponiya, Koreya kabi har sohada ilg'or rivojlangan mamlakatlar ham mustaqillik yillarining ilk kunlaridan boshlab ta'lim va yoshlar masalasiga diqqat e'tiborlarini qaratishgan.

«Xitoy yoshlar kommunistik ittifoqi», Janubiy Koreya Respublikasida «Youth Policy 2030» milliy strategiyasi, Indoneziyada «Pemuda Pancasila» kabi yoshlar markazlari mavjud bo'lib ular quyidagi shior ostida ish yuritishadi:

- 1) ta'lim sifati va ijodkorlikni rag'batlantirish;
- 2) aholi qarishi fonida yoshlar mehnat bozoriga faol jalb etilmoqda;
- 3) raqamli transformatsiya va startaplar uchun grantlar;
- 4) yoshlar siyosati ko'proq ijtimoiy xizmatlar va psixologik qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan
- 5) diniy tarbiya va milliy birlikni mustahkamlash.

O'zbekistonda yoshlar siyosati masalasida ham yuqorida nomlari keltirib o'tilgan mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalari tobora kengayib bormoqda. Ushbu hamkorliklar yoshlarning ta'limi, ilm-fan, madaniyat, ijtimoiy faollik va raqamli texnologiyalar kabi sohalarda amalga oshirilmoqda. Misol tariqasida, O'zbekiston va Xitoy o'rtasida 70 ta ikki tomonlama ta'lim bitimi imzolangan bo'lib, har yili 300 dan ortiq o'zbekistonlik talabalar Xitoy universitetlarida tahsil olish imkoniyatiga ega. Shuningdek, yozgi maktablar va ilmiy tadqiqotlar bo'yicha hamkorliklar yo'lga qo'yilgan bo'lib kelajakda ushbu hamkorlik ishlarini davom ettirish rejalashtirilmoqda.

2025-yilning 26-mart sanasi ham tarixiy voqealardan biri bo'ldi. Buxoro viloyatida Xitoy korxonalari bilan forum tashkil etilib, Forumda Xitoyning 60 ta etakchi kompaniyalari ishtirok etdi. Muzokaralar natijasida Shenzhen Water Technology, Ampere Energy Technology, ENERMALL kabi yirik kompaniyalar bilan kelishuvlarga erishildi.

Forumda provinsiyaning 40 ta yirik kompaniyalari bilan bilan G2B uchrashuvlar olib borildi. Uchrashuvlar yakuniga ko'ra, «Qitong Tea» kompaniyasi bilan qiymati 10 mln AQSH dollarlik choy plantatsiyalari va choy ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha bo'yicha memorandum imzolandi (\$10 mln.). Shuningdek, choy ishlab chiqarish, «Highclass Solar Light Co. LTD» kompaniyasi bilan yorug'lik texnologiyalari (LED diodlar) ishlab chiqarish, shuningdek, Buxoroda to'rt yulduzli mehmonxona qurish, «Guangdong Chant Group Inc» kompaniyasi bilan Buxoroda 5 ming xonadonli turar joy maskani qurilishi doirasida kogeneratsiya loyihasini amalga oshirish, «Taili Group» kompaniyasi bilan kadrlarni tayyorlash uchun akademiya tashkil etish va O'zbekistonda marketing platformasini tashkil etish, «Yoye Wisdom» kompaniyasi bilan tekstil mahsulotlarini lokalizatsiya qilish va Yevropaga eksport qilish, «Lesso» kompaniyasi bilan qurilish sohasida hamkorlikni kengaytirish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Kunchiqar mamlakat hisoblanmish Yaponiya va Malayziya kabi Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan ham izchil samarali dasturlar yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularning barchasi yoshlarning ijtimoiy- siyosiy, madaniy jihatdan faollikka, hamkorlikka chorlaydi. Jumladan, «Future World» Xalqaro Yoshlar San'ati Festivali 2024-yilning sentyabr oyida o'tkazilgan bo'lib, ushbu festivalda Xitoy, O'zbekiston va boshqa mamlakatlardan 500 dan ortiq yosh san'atkorlar

ishtirok etdi. Tadbirda raqamli madaniyat, san'at va texnologiya sohalaridagi yangiliklar namoyish etildi. Yoshlar orasida yapon madaniyatiga oid elementlar ham ko'rsatib o'tildi.

Dunyoda barcha xalq va madaniyatlarni birlashtirib bir makonga chorlovchi «Sharq Taronalari» XIII Xalqaro Musiqa Festivali ham yosh avlodning madaniy va ma'rifiy salohiyati o'stirishga, qadriyatlari va tarixini asrab avaylashga undaydigan festivallardan biridir. 2024-yilning avgust oyida Samarqandda o'tkazilgan bu festivalda 300 dan ortiq san'atkorlar ishtirok etdi. Festivalda turli xil xalq va madaniyatlarning milliy musiqalari va raqslari ham namoyish etildi, bu esa madaniyatlararo almashuvni yanada rivojlantirdi. Ushbu festivalda ishtirok etgan qatanashchilarning aksariyati yoshlar edi va ular dunyo xalqlari milliy qadriyatlari va san'ati bilan tanishganlaridan ham mamnun bo'lishdilar [14].

Umuman olganda, O'zbekistonda yoshlar siyosati samarali yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu siyosat kelajakda jamiyatimizda etuk, bilimli va vatanparvar avlodni shakllantirishga zamin yaratmoqda. Mamlakat rahbariyati tomonidan yoshlar manfaatlarini himoya qilish, ularning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, kasb-hunar egallashlariga, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirishlariga va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida kamol topishlariga barcha sharoitlar yaratilmoqda.

Bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida, yoshlarning ijtimoiy hayotdagi faolligi ortib bormoqda. Ular nafaqat ta'lim, balki iqtisodiyot, siyosat, madaniyat va tadbirkorlik sohalarida ham o'z o'rnini topmoqda. Xususan, «Yoshlar daftari», «Yoshlar – kelajagimiz», «Temurbeklar maktabi», «Besh tashabbus olimpiadasi» kabi tashabbuslar yoshlarning turli qatlamlariga manzilli yondashuv asosida yordam berilishini ta'minlamoqda.

Davlat tomonidan yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlar, jumladan, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, bepul kasb-hunar kurslari, grantlar va stipendiyalar, yoshlarni nafaqat moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlayapti, balki ularni mustaqil va mas'uliyatli bo'lishga undamoqda. Bu esa o'z navbatida, yoshlarning o'z iqtidorini ro'yobga chiqarishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda [15].

Yoshlar har bir davlat va jamiyatning eng harakatchan, yangiliklarga boy va istiqbolli qismidir. Bugungi globallashuv sur'atlari shiddat bilan kechayotgan bir davrda davlatlarning muqobil va barqaror taraqqiyoti, raqobatbardoshligi va ijtimoiy-iqtisodiy rivoji bevosita va bilvosita yoshlarning energiyasi, salohiyatidan oqilona foydalanishga bog'liqdir. Shu sababli, jahon miqyosida yoshlar siyosati ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida shakllanib kelgan va shu yo'sinda davom etib kelmoqda Rivojlangan mamlakatlardan tortib, rivojlanayotgan va transformatsion jarayondagi davlatlarga — barchasi o'z yosh avlodining har tomonlama ta'limi, bandligi, sog'lom hayoti, ijtimoiy faolligi va innovatsion qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlashga intilib kelishmoqda [16].

Xulosa

O'zbekiston ham so'nggi yillarda yoshlar siyosatini tubdan isloh qilish, ularning imkoniyatlarini kengaytirish, tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va muammolarini hal qilish bo'yicha qator davlat dasturlari, qonun hujjatlari va amaliy loyihalarni yo'lga qo'ydi. Biroq, hali mavjud muammolar, tizimdagi kamchiliklar hamda hududlararo o'zaro nomutanosibliklar muhim analiz va tahlillarni talab qiladi. Jumladan, ishsizlik, poytaxt va viloyat markazlarida imkoniyatlar ko'proq bo'lsa-da, qishloqlarda yoshlar uchun infratuzilma, sport, ta'lim va bandlik imkoniyatlari cheklanganligi, yoshlar har sohada to'liq qo'llab-quvvatlanmasligi, korrupsion holatlar, ayollar va qizlar o'rtasida ijtimoiy tazyiq va zo'ravonlik kabi holatlarning kuzatilishi kabilarni sanab o'tishimiz mumkin. Mavjud muammolarni, bartaraf etgan holatda yosh avlodga munosib shart - sharoitlarning yaratilishi ularning yanada qo'llab-quvvatlanishi ertangi farovon kunimizning asosiy sarmoyasidir.

Bandlik muammosini samarali hal etish bo'yicha yangi tizim va mexanizmlarning joriy etilishi qayd etildi. Bundan tashqari, yoshlarni ish bilan ta'minlash muammosiga yondashuvning yangi bosqichida hukumatning yanada samarali harakatlari ko'rib chiqildi, chunki hozirgi vaqtda yoshlarga Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyati tumanlari va shaharlari kesimida imtiyozli harakatlar berilmoqda, bu esa yoshlar biznesini yanada samarali rivojlantirishga, yosh mutaxassislar uchun yangi ish o'rinlari yaratishga yordam berdi. Umuman olganda, ushbu paragrafni tadqiq qilishda O'zbekiston yoshlar Ittifoqi va Zarafshon vohasi viloyat yoshlar ishlari agentligi faol va passiv faoliyati aniqlangan ayrim tuman va shaharlar taqqoslandi. Bularning barchasi bilan shuni ta'kidlash kerakki, yoshlar tashkilotining tashkil etilishi davlatning barqaror rivojlanishi uchun yoshlar tashkilotining roli zarur bo'lgan tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan davrlar davomida shakllangan. Ko'rib turganimizdek, ko'rib chiqilgan manbalardan, har bir davr bilan yoshlar tashkilotlari ma'lum bosqichlardagi yoshlar uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ammo O'zbekiston yoshlar Ittifoqi va yoshlar ishlari agentligi kelishi bilan O'zbekistonni takomillashtirishning yangi bosqichida yoshlarni har tomonlama qamrab olish bo'yicha manzilli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, yoshlar siyosati faqat rasmiy darajadagi chora-tadbirlar bilan cheklanmay, ularning tashabbuskorligini, ijtimoiy faolligini va fuqarolik mas'uliyatini kuchaytirishga ham qaratilmoqda. Bu esa jamiyatda barqaror taraqqiyot va ijtimoiy uyg'unlikka erishishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2016-yil 14-sentyabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonun URL: <https://lex.uz/docs/3026246>

2. Mirziyoyev, Sh. (2024) Hozirgi zamon va O‘zbekiston. Toshkent: «O‘zbekiston» nashriyoti, 560 b.
3. Mirziyoyev, Sh. (2023) Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashr. T: «O‘zbekiston» nashriyoti, 416 b.
4. Mirziyoyev, Sh. (2017) erkin va farovon, demokratik davlatini birgalikda barpo etamiz. T: «O‘zbekiston» nashriyoti, 62-b.
5. Investigating youth policies through the Lens of public narratives – Comparing China and Europe Xuan Li Investigating youth policies through the Lens of public narratives – Comparing China and Europe. 2020 University of Ontario Institute of Technology Oshawa, Ontario, Canada. 2023. p. 211.
file:///C:/Users/Acer/Downloads/Xuan_publicnarativeanalysis%20(1).pdf
6. Montgomery. D. (2016, june 16) The rise of creative youth development. Art education policy. Retrieved from:
<http://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/10632913.2015.1064051>
7. Rahim, A. (2020, June 20) Cultural, historical and policy influences on youth activism in Malaysia. University of Glasgow. p. 220. Retrieved from:
<https://theses.gla.ac.uk/id/eprint/81732>
8. Sinead, M. (2018) Governing Youth Work Through Problems: A WPR Analysis of the ‘Value for Money and Policy Review of Youth Programmes’ Maynooth University. p. 203. Retrieved from:
<https://mural.maynoothuniversity.ie/id/eprint/10857/1/Sinead%20McMahon%2014251619%20April%202019.pdf>
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMTning 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi. Retrieved from:
<https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyoevbmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>
- 10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston yoshlari forumidagi ma’ruzasi. Retrieved from:
https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi-prezidentishavkat-mirziyoevning-ozbekiston-yoshlari-forumida-sozlagan-nutqi_197662
11. Juraev, S. (1994) Особенности формирования государственной молодежной политики Республики Узбекистан в переходный период: теория и практика. Ар. дисс. док. политол. Н. С.17
12. Kenjayeva, P., Karimova, L. (2019). Xotira-bu q qismining bir qismi bo‘lgan odamlarning ma'naviyati. Madaniyatlar chorrahasi, 1 (3).

13. Xajieva, I. et al. (2024) The importance of spiritual values in the upbringing of the harmoniously developed person in teaching and learning process. International Journal of Advanced Science and Technology. 29 (5). 1496-1499

14. Xitoylik investorlar Buxoro viloyatida yangi loyihalarni amalga oshirmoqda URL: <https://www.uzdaily.uz/uz/xitoylik-investorlar-buxoro-viloyatida-yangi-loyihalarni-amalga-oshirmoqda/> (murojaat sanasi:13.06.2025).

15. Yaponiyada Samarqand kunlari. URL: https://uza.uz/oz/posts/yaponiyada-samarqand-kunlari_497402 (murojaat sanasi:13.06.2025).

16. Норов, Ш. (2023) Исторический анализ трудоустройства молодежи Узбекистана на примере Зарафшанского оазиса Физическая культура, спорт и молодежная политика в условиях глобальных вызовов. Екатеринбург, С. 337-341.